



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 5-SON



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 5 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrisha82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

G'aniyeva Sabohat

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY
MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR TAHLILI6-10

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

XALQARO HUQUQ TERMINLARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH
MUAMMOLARI 11-14

YURIDIK FANLAR

G'iyosov Bilolbek

RAQAMLI KUZATUV VOSITALARINI QO'LLASHDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI
TA'MINLASHDA SUN'IY INTELEKTNING O'RNI 15-19

Jo'rayev Doston

SUD TIZIMIDA MEDIATIV KELISHUVNING AMALIY MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH
YO'LLARI VA BU BORADA XORIJ TAJRIBASI 20-25

Raximjonova Odinaxon

WOMEN'S RIGHTS: INTERNATIONAL AND NATIONAL APPROACHES 26-30

IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMIC SCIENCES*Article / Original Paper***BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONA
RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI
SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR TAHLILI****G'aniyeva Sabohat Xotamjon qizi**

Andijon davlat universiteti

“Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” yo‘nalishi

2-kurs magistranti

E-mail: sabohatganieva80@gmail.com

Tel.: +998 95 161 27 24

Annotatsiya. Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyati, uni shakllantiruvchi asosiy omillar hamda raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: korxonalar raqobatbardoshligi, bozor iqtisodiyoti, innovatsiya, boshqaruv samaradorligi, marketing strategiyasi.

**ANALYSIS OF THE ECONOMIC ESSENCE OF ENTERPRISE COMPETITIVENESS
AND THE FACTORS SHAPING IT IN A MARKET ECONOMY****G'aniyeva Sabohat Xotamjon qizi**

Andijan State University

Master's student, 2nd year

Department of Anti-Monopoly Management and Competition Development

Annotation. This article analyzes the economic essence of enterprise competitiveness in a market economy, the main factors shaping it, and theoretical aspects of improving competitiveness.

Keywords: enterprise competitiveness, market economy, innovation, management efficiency, marketing strategy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i5v2y2026/n01>

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish ularning barqaror rivojlanishi va bozordagi mavqegini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Raqobatbardoshlik korxonaning ishlab chiqarish salohiyati, innovatsion imkoniyatlari, boshqaruv sifati va tashqi muhitga moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur mavzuni o‘rganish korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va strategik rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Korxonalar raqobatbardoshligi bo‘yicha ilmiy yondashuvlarda mazkur kategoriya ichki resurslar, tashqi muhitga moslashuvchanlik va strategik boshqaruv bilan bog‘liq murakkab iqtisodiy hodisa sifatida talqin etiladi [1, 17-b.]. Tadqiqotlarda raqobatbardoshlikni baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda innovatsion

salohiyat, boshqaruv sifati, marketing strategiyasi va bozor talablariga moslashish mezonlari muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi [2, 45–53-b.; 3, 78–84-b.].

M.Porter raqobat ustunligini shakllantirishda xarajatlarni optimallashtirish, differentsiatsiya va barqaror strategik pozitsiyani asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi [4; 6]. Innovatsion menejment va texnologiya transferiga oid tadqiqotlarda esa korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi ilmiy-tadqiqot faoliyati, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish bilan bevosita bog‘liq ekani asoslanadi [5; 7, 141–148-b.].

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik hamda analitik usullardan foydalanildi. Korxonaning raqobatbardoshligini baholashga oid ilmiy adabiyotlar, iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari va amaliy ma’lumotlar tahlil qilinib, raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari korxonaning raqobatbardoshligi ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion salohiyat, boshqaruv sifati va tashqi muhitga moslashuvchanlik bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sifat menejmentini takomillashtirish va marketing strategiyalarini rivojlantirish korxonalarining bozordagi ustunligini ta’minlovchi asosiy omillar ekanligi aniqlandi.

Muhokama. Korxonaning raqobatbardoshligi iqtisodiy mohiyatini o‘rganish, avvalo, uning shakllanish sabablari va tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlashni talab qiladi. Bu jarayon korxonaning raqobatbardoshligi mazmunini aniqlash, uni tashqi muhitdan mantiqiy jihatdan ajratish imkoniyatlarini baholash, shuningdek, korxonaning tashqi muhitga moslashuvchanligi va barqaror faoliyat yuritishini belgilovchi sifat hamda xususiyatlarni o‘rganishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, korxonalar o‘rtasida raqobatning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash ham mazkur masalaning muhim jihatlaridan biridir.

Tadqiqotlarda korxonani tashqi muhitdan ajratish imkoniyatini tushuntiruvchi ikki asosiy yondashuv ajratib ko‘rsatiladi. Birinchi yondashuv tizim nazariyasiga asoslanib, unga ko‘ra, tizim yaxlitligi korxonani tashqi muhitdan ajratish imkoniyatining asosiy sababi hisoblanadi. Ikkinchi yondashuv esa tashkilot nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda korxonaning aniq belgilangan “chegaralari” uni tashqi muhitdan ajratish imkoniyatining asosiy omili sifatida talqin qilinadi.

Tizimlararo aloqalarning zichligi va intensivligi korxonaning yaxlitligini ta’minlaydi hamda uni tashqi muhitdan nisbatan ajratib turadi. Korxonaning yaxlitligini belgilovchi omillar texnologik jarayonlarda moddiy, energetik va axborot o‘zgarishlarining amalga oshirilishi, shuningdek, ushbu transformatsiyalarni bajarishga mas’ul bo‘lgan quyi tizimlarning o‘zaro birlashish usuli bilan belgilanadi [1, 17-b.].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, korxonaning raqobatbardoshligi nafaqat uning ishlab chiqarish quvvatlari yoki moliyaviy ko‘rsatkichlari, balki mavjud bozor sharoitiga moslashuvchanligi, innovatsion salohiyati hamda resurslardan samarali foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Mazkur jihatlar, bir tomondan, korxonaning ichki imkoniyatlari majmuini ifodalasa, ikkinchi tomondan, uning tashqi muhit bilan uzviy aloqadorligini namoyon etadi [2, 45–53-b.].

1-jadval

№	Korxonaning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi asosiy elementlar
1	Ishlab chiqarish texnologiyalarining zamonaviyligi va energiya tejamkorligi

2	Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari
3	Sifat standartlari va sertifikatlash tizimining mavjudligi
4	Mehnat resurslarining malakasi, boshqaruv uslublarining samaradorligi
5	Marketing va bozorni o'zlashtirish strategiyalarining puxtaligi
6	Innovatsiyalarni joriy etish va texnologiya transferi imkoniyatlari
Manba: <i>Mauulif tadqiqotlari</i>	

Shuningdek, korxonaning raqobatbardoshligi uning ichki resurslari va tashqi bozor omillari o'zaro ta'sirining natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda davlatning iqtisodiy siyosati, huquqiy baza, soliq va bojxona imtiyozlari hamda infratuzilma rivojlanish darajasi muhim o'rin tutadi. Shu sababli raqobatbardoshlikni baholashda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki tashqi muhitga integratsiyalashuv darajasi, korporativ boshqaruv sifati, innovatsion faoliyat va ijtimoiy mas'uliyat kabi mezonlar ham inobatga olinadi.

Zamonaviy sharoitda raqobatbardoshlikning muhim jihatlaridan biri bozorning global xarakter kasb etishi bilan bog'liq. Mahsulot va xizmatlar bozorida xalqaro standartlar, ekologik talablar hamda intellektual mulk huquqlari kabi omillar korxonaning ichki siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Natijada korxonalar o'z raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalarni oshirish, xorijiy hamkorlar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga intiladilar.

Mazkur omillar korxonaning raqobatbardoshligini shakllantirish va mustahkamlashda kompleks tarzda namoyon bo'ladi. Chunki birgina texnologiyani joriy etish yoki xarajatlarni kamaytirish raqobat ustunligini ta'minlash uchun yetarli emas. Yuqoridagi omillar o'zaro bir-birini to'ldirgan va integratsiyalashgan holdagina samarali natija beradi. Shu bois raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsad va ko'rsatkichlarni belgilash zarur [3, 78-84-b.].

Xususan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va energiya tejamkor usullarni qo'llash korxonaga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Sifat standartlari va sertifikatlash tizimining mavjudligi bozor talablariga javob beruvchi, eksportbop mahsulotlar yaratish hamda iste'molchilar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Mehnat resurslarining malakasi va boshqaruv uslublarining samaradorligi esa korxonaning ichki barqarorligi hamda tashqi muhitga moslashuvchanligini kuchaytiradi [4].

Bundan tashqari, marketing va bozorni o'zlashtirish strategiyalarining puxta ishlab chiqilishi korxonaga yangi segmentlarni egallash, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash va raqobatchilardan ustunlikka erishish imkonini beradi. Innovatsiyalarni joriy etish hamda texnologiya transferi raqobatbardoshlikning uzoq muddatli omili sifatida mahsulot va xizmatlar turini kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga xizmat qiladi [5].

Shu sababli korxonalar raqobatbardoshligini baholashda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki sifat menejmenti, innovatsion salohiyat, kadrlar siyosati, bozor strategiyasi va texnologik yangilanish kabi mezonlar ham kompleks tarzda inobatga olinishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlik korxonaning mahsulot yoki xizmatlarini muayyan bozor segmentida muvaffaqiyatli sotish, barqaror daromad olish va bozor ulushini saqlab qolish qobiliyatini anglatadi.

Korxonalar raqobatbardoshligi iqtisodiy kategoriya sifatida ikki darajada namoyon bo'ladi. Birinchisi ichki raqobatbardoshlik bo'lib, u korxonaning ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkoniyatlarini ifodalaydi. Ikkinchisi — tashqi raqobatbardoshlik bo'lib, u korxonaning o'z mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda sotish hamda iste'molchi ehtiyojlarini qondirish qobiliyati bilan belgilanadi [6].

Shuningdek, korxonalar raqobatbardoshligini shakllantiruvchi asosiy elementlar ishlab chiqarish texnologiyalarining zamonaviyligi, energiya tejamligi, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari, sifat standartlari va sertifikatlash tizimi, malakali ishchi kuchi, boshqaruv uslublarining samaradorligi, marketing va bozorni o'zlashtirish strategiyalari, innovatsiyalarni joriy etish hamda texnologiya transferi imkoniyatlari korxonaning ichki salohiyatini kengaytiradi va tashqi muhitda barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Raqobatbardoshlik tushunchasi, shuningdek, korxonaning tashkiliy moslashuvchanligi va strategik rivojlanish yo'nalishlarini ham o'z ichiga oladi. Jumladan, bozordagi narxlar tebranishi, texnologiyalarni yangilash sur'ati, iste'molchilar afzalliklarining o'zgarishi hamda eksport-import shartlaridagi o'zgarishlar korxonaning moslashuv qobiliyatini sinovdan o'tkazadi. Shu sababli korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun nafaqat ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, balki boshqaruvning yangi shakllarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish zarur [7, 141–148-b.].

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, raqobatbardoshlik tushunchasi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda kompleks va ko'p qirrali kategoriya sifatida namoyon bo'lmoqda. Korxonaning raqobatbardoshligi uni faqat ishlab chiqarish quvvatlari yoki rentabellik darajasi orqali emas, balki tashqi muhitga moslashuvchanligi, innovatsion salohiyati, strategik fikrlash darajasi va tashkiliy moslashuv qobiliyati orqali baholash lozim. Boshqacha aytganda, bu kategoriya iqtisodiy, texnologik, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro murakkab integratsiyasi natijasidir.

Korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy elementlar texnologik yangilik, xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot sifati, malakali mehnat resurslari, marketing strategiyasi va innovatsion faoliyat bir-biridan mustaqil emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini kuchaytiruvchi komponentlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan har qanday strategiya integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Masalan, faqat texnologiyani joriy etish yoki tannarxni pasaytirish orqali barqaror ustunlikka erishib bo'lmaydi; bu jarayonni innovatsiyalar, boshqaruv sifati va bozor strategiyasi bilan to'ldirish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, korxonaning raqobatbardoshligi uning ichki resurslari, ishlab chiqarish salohiyati, innovatsion imkoniyatlari va tashqi bozor sharoitlariga moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Raqobatbardoshlikni oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, kadrlar malakasini oshirish va samarali marketing strategiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash: o'quv qo'llanma. – Samarqand: TURON NASHR, 2021. – 17-b.
2. Содиқова Н. Ю., Ҳамидов О. И. Корхоналар рақобатбардошлигини баҳолаш мезонлари ва уларнинг такомиллашуви // Ўзбекистон иқтисодиёти журналі. – 2021. – № 2. – Б. 45–53.

3. Абдуллаева Г. Х. Корхоналар рақобатбардошлигини оширишда инновацион технологияларнинг аҳамияти // Тошкент молия институти илмий хабарлари. – 2022. – № 3. – Б. 78–84.
4. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – М.: Альпина Паблшер, 2016. – 715 с.
5. Давидов К. С., Ходжиева М. Б. Инновацион менежмент ва рақобатбардошлик. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. – 192 б.
6. Портер М. Е. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. – СПб.: Питер, 2020. – 602 с.
7. Шарипова З. Қ., Камалов И. Н. Саноат корхоналарида инновация ва технология трансфери орқали рақобатбардошликни таъминлаш // Ўзбекистон иқтисодиётининг истиқболлари. – 2024. – № 2. – Б. 141–148.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 5 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com